

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
3U formatidan kichik bo‘lmagan sun’iy yo‘ldoshlar uchun innovatsion “Attitude Determination and Control System – ADCS”ni ishlab chiqish hamda Yer orbitasida sinovdan o‘tkazish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - “Attitude Determination and Control System – ADCS” yaratish uchun “Guidance, Navigation, and Control - GNC” sohasida ilmiy tadqiqot markazi ishga tushadi; - Sun’iy yo‘ldoshlarni integratsiya qilish uchun toza xona (ISO 7-8 clean room) tashkil etiladi; - Yulduz datchigi (Star tracker), inersial o‘lchov tizimi (Inertial measurement unit) IMU), GPS, reaktiv g‘ildirak (Reaction wheel), magnit buragich (Magnetorquer)dan foydalangan holda yuqori aniqlikdagi orientatsiya va boshqaruv tizimi (Attitude Determination and Control System – ADCS) yaratiladi; - CubeSat 3U formatidan kichik bo‘lmagan sun’iy yo‘ldosh ishlab chiqish, yig‘ish, yer sinovidan o‘tkazish, barqaror yaqin Yer orbitasiga chiqarish va ADCS tizimini orbital sinovdan o‘tkazish; Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar “O‘zbekkosmos” agentligi tizimidagi korxonalarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida “O‘zbekkosmos” agentligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zbekkosmos” agentligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.